



**MOLIYAVIY HISOBOT XALQARO STANDARTLARINING HISOB
TIZIMIDAGI INTEGRATSIYASI**

PhD, dots. **Imamova Nasiba Muzaferovna**
International School of Finance Technology and Science
ORCID: 0009-0004-1970-1349
imamova2014@inbox.ru

Annotatsiya. Moliyaviy hisobot xalqaro standartlari bugungi kunda global iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylangan. Ularning asosiy maqsadi moliyaviy hisobotlarni ishlab chiqishda yagona yondashuvni ta'minlash, xalqaro miqyosda taqqoslashni osonlashtirish va investorlar uchun shaffoflikni oshirishdir. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari ko'plab mamlakatlar tomonidan qabul qilingan bo'lib, bu biznes jarayonlarini muvofiqlashtirish, kompaniyalar faoliyatining samaradorligini baholash, va moliyaviy axborotni standartlashtirish uchun katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga, hisob tizimining xalqaro standartlarga moslashishi, kompaniyalar uchun nafaqat qonuniy talablarni bajarish, balki biznes jarayonlarida raqobatbardoshlikni oshirish uchun ham muhimdir. Ushbu maqolada, moliyaviy hisobot xalqaro standartlarining hisob tizimidagi integratsiyasi, uning mohiyati va foydalari, shuningdek, joriy qilish jarayoni va xalqaro mamlakatlar tajribasi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: moliyaviy hisobot xalqaro standartlari, integratsiya, investor, GAAP, IFRS. Moliyaviy hisobotlar standartlari kengashi, moliyaviy hisobot.

**ИНТЕГРАЦИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ ФИНАНСОВОЙ
ОТЧЕТНОСТИ В УЧЕТНУЮ СИСТЕМУ**

PhD, доц. **Имамова Насиба Музаферовна**
International School of Finance Technology and Science

Аннотация. Международные стандарты финансовой отчетности на сегодняшний день стали неотъемлемой частью глобальной экономики. Их основная цель – обеспечение единого подхода при составлении финансовых отчетов, облегчение их сопоставимости на международном уровне и повышение прозрачности для инвесторов. Международные стандарты финансовой отчетности приняты многими странами, что имеет большое значение для координации бизнес-процессов, оценки эффективности деятельности компаний и стандартизации финансовой информации. В то же время, адаптация учетной системы к международным стандартам является важным не только для выполнения юридических требований, но и для повышения конкурентоспособности в бизнес-процессах. В данной статье рассматривается интеграция международных стандартов финансовой отчетности в учетную систему, их суть и преимущества, а также процесс внедрения и опыт международных стран.

Ключевые слова: международные стандарты финансовой отчетности, интеграция, инвестор, GAAP, IFRS, Совет по международным стандартам финансовой отчетности, финансовый отчет.

INTEGRATION OF INTERNATIONAL FINANCIAL REPORTING STANDARDS INTO THE ACCOUNTING SYSTEM

*PhD, assoc. prof. Imamova Nasiba Muzaferovna
International School of Finance Technology and Science*

Abstract. International Financial Reporting Standards (IFRS) have become an integral part of the global economy today. Their main purpose is to ensure a unified approach to the preparation of financial statements, facilitate their comparability on an international level, and increase transparency for investors. International financial reporting standards have been adopted by many countries, which is of great importance for coordinating business processes, evaluating the effectiveness of company operations, and standardizing financial information. At the same time, adapting the accounting system to international standards is crucial not only for meeting legal requirements but also for enhancing competitiveness in business processes. This article discusses the integration of international financial reporting standards into the accounting system, their essence and benefits, as well as the implementation process and the experience of international countries.

Keywords: international financial reporting standards, integration, investor, GAAP, IFRS, International Financial Reporting Standards Council, financial report.

Kirish.

Moliyaviy hisobotlar xalqaro tizimlarning integratsiyasi bugungi kunda iqtisodiyotning globalizatsiyasi va moliyaviy bozorlarning rivojlanishi bilan o'sib bormoqda. Shu sababli, xalqaro moliyaviy hisobotlar tizimining yagona va bir xil qo'llanilishi kompaniyalar va investorlar uchun yanada samarali va taqqoslanadigan hisobotlarni taqdim etadi. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS) – bu kompaniyalar tomonidan moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etishda qo'llaniladigan usullarni belgilovchi qoidalardir. MHXS tizimi korxonalarga o'z faoliyatini xalqaro miqyosda bir xil uslubda taqdim etish imkonini beradi, bu esa investorlarga kompaniyalar o'rtasida taqqoslashni ancha osonlashtiradi. MHXS tizimi kompaniyalar faoliyatini samarali monitoring qilish, ularning moliyaviy ahvolini yaxshiroq tushunish va boshqaruva qarorlarini qabul qilish imkoniyatlarini yaratadi.

Adabiyotlar sharhi.

Xalqaro moliyaviy hisobotlar standartlari (IFRS) global moliya bozorlarida kompaniyalar uchun bir xil hisobotlarni taqdim etish maqsadida ishlab chiqilgan. 1973-yilda tashkil etilgan Xalqaro Moliyaviy Hisobotlar Standartlari Kengashi (IASB) tomonidan boshqariladi. Izlanishlarimiz davomida mutaxassislar tomonidan keltirilgan bir qancha ta'riflarni o'rgandik. Deloitte hisobotida IFRSni qabul qilgan mamlakatlarning moliyaviy hisobotlar bo'yicha integratsiyasiga va uning iqtisodiy samaradorligiga ta'siri haqida ma'lumotlar keltirilgan. (Deloitte, 2020). IFRS (2020) Adoption Worldwide: A Status Report. Deloitte Touche Tohmatsu Limited.). IFRS oshkor qilish talablariga rioya qilish – kapital bozorining samarali faoliyatini ta'minlay oladigan yuqori sifatli moliyaviy axborotni taqdim etishni anglatadi. ta'kidlaganidek, IFRS standartlariga amal qilish moliyaviy hisobot sifati oshishiga olib keladi, bu esa daromadlarni manipulyatsiya qilish imkoniyatlarini kamaytiradi, zararlarni o'z vaqtida tan olishni ta'minlaydi va hisobotdagi axborotni yanada qiymatga asoslangan qiladi. Bundan tashqari, investorlarni himoya qiluvchi huquqiy tizim moliyaviy hisobot sifati uchun muhim hisoblanadi. (Auwalu Musa, 2019).

So'nggi yillarda global iqtisodiyotning jadallik bilan rivojlanishi, transmilliy kompaniyalar sonining ortishi va kapital bozorlarining xalqaro integratsiyasi natijasida moliyaviy hisobotning yagona, tushunarli va solishtiriladigan shaklda taqdim etilishi zarurati keskin oshdi. Shu sababli, Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini qabul qilish va ularni milliy

hisob tizimlariga integratsiya qilish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. (Nobes, & Parker, 2016).

Ko'plab olimlar va mutaxassislar MHXSning hisob tizimiga integratsiyasi masalasini turli jihatlari bilan o'rgangan. Masalan, Nobes and Parker (2016) o'z tadqiqotida MHXS va milliy buxgalteriya standartlari o'rtasidagi asosiy farqlarni tahlil qilib, MHXSning global konvergensiyyadagi rolini ochib bergen. Ularning fikricha, MHXSning asosiy ustunligi – bu axborotning shaffofligi va investorlar uchun yuqori darajadagi ishonchni ta'minlashidadir. (Nobes, & Parker, 2016).

Mirza, Holt va Orrellar esa MHXSni qo'llash tajribasini amaliy misollar orqali tahlil qilib, bu standartlarning hisob siyosatiga qanday ta'sir ko'rsatishini chuqur ko'rib chiqqanlar. Ular, ayniqsa, aktivlar va majburiyatlarning baholanishi, daromadlarni tan olish va moliyaviy instrumentlar hisobidagi yondashuvlar farqiga e'tibor qaratgan. (Mirza, Holt va Orrell, 2019)

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Moliyaviy hisobot xalqaro standartlari (IFRS) sifatida ham tanilgan, dunyo bo'ylab ko'plab mamlakatlar tomonidan qabul qilinib, moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda yagona yondashuvni ta'minlaydi. Ushbu standartlarning joriy qilinishi global miqyosda korxonalarining moliyaviy shaffofligini oshiradi, investorlarga ma'lumotlar taqqoslash imkoniyatini beradi va biznes jarayonlarini soddalashtiradi. Turli mamlakatlar MHXSni joriy qilishda o'ziga xos tajribalarni ishlab chiqdilar. Quyida ba'zi mamlakatlarning MHXSni qabul qilish va integratsiya qilishdagi tajribalari keltirilgan. Yevropa Ittifoqi 2005-yildan boshlab, barcha kompaniyalarga MHXSni joriy etdi. Barcha birja orqali aktsiyalarini chiqaruvchi kompaniyalar va Yevropa Ittifoqi a'zolarining aksariyat korxonalarini uchun IFRS talab qilindi. Shuningdek, Yevropa Ittifoqida MHXSning qo'llanilishi quyidagi asosiy jihatlar bilan o'ziga xosdir. 2005-yildan boshlab, Yevropa Ittifoqining kompaniyalari uchun IFRS qo'llanilishi majburiydir. Bu nafaqat ularga, balki ularning moliyaviy hisobotlarini soliq va auditorlik nazorati uchun bir xil tizimda taqdim etishga yordam beradi. Mahalliy tizimlar bilan integratsiyada Biroq, Yevropa Ittifoqi davlatlari o'zlarining mahalliy soliq va buxgalteriya tizimlariga nisbatan ayrim farqlarni saqlab qolgan. Shu bilan birga, mahalliy qonunchilikdagi farqlarni hal qilish uchun mahalliy va xalqaro standartlar o'rtaida muvofiqlik talab qilingan.

Germaniya, Fransiya va Buyuk Britaniya kabi mamlakatlar o'zlarining mahalliy buxgalteriya tizimlariga nisbatan Xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini qo'llashga jadal o'tganlar. Britaniya o'zining audit va soliq tizimini modernizatsiya qilishda XHSni joriy qilishga katta e'tibor qaratdi. Xitoy buxgalteriya hisob tizimining evolyusiyasi xalqaro buxgalteriya hisobi standartlari bilan uyg'unlashuv jarayoni edi. Buxgalteriya hisob tizimini isloh qilish dastlab 1980 yillardan boshlab xorijiy mulkka ega bo'lgan firmalarning talabini qondirish uchun boshlandi. Buxgalteriya hisobi standartlarining birinchi to'plami xalqaro buxgalteriya hisobi standartlari doirasida ishlab chiqilgan.

1990 yillarga kelib buxgalteriya hisobi tizimi iqtisodiyot va kapital bozorining o'sib borayotgan rivojlanishi natijasida yanada rivojlandi. 2005 yil 8 noyabrda Moliya Vazirligi va Xalqaro buxgalteriya hisobi standartlari kengashi (IASB) memorandum imzoladilar. (Tianyu Zhang 2020) Xitoy 2007-yildan boshlab IFRSni o'zining milliy buxgalteriya tizimiga integratsiya qilishni boshladi. Xitoyning moliyaviy tizimi an'anaviy tarzda mahalliy tizimga asoslangan edi, ammo global bozorlarga integratsiyalashish zarurati tufayli IFRS tizimiga o'tishni boshladi.

Biroq, bu jarayon ba'zi qiyinchiliklar bilan yuzlashdi. Xitoyda MXHSni joriy qilishda boshlang'ich bosqichlarda mahalliy buxgalteriya tizimi va xalqaro standartlar o'rtaida ba'zi farqlar mavjud edi. Xitoy 2011-yilda moliyaviy hisobotlarini IFRS asosida tayyorlashni boshladi, ammo ba'zi kichik o'zgarishlar va mahalliy talablar saqlanib qolgan. Shuningdek, Xitoy kompaniyalariga ma'lum shartlar asosida IFRSni qo'llash huquqi berildi. Xitoy Xalqaro hisobot tizimiga o'tishni bosqichma-bosqich amalgalashdi va 2014-yilda ularni kengroq

tarzda tatbiq qila boshladi. Xitoyning kompaniyalarini xalqaro standartlarga moslashtirilishi uzoq davom etdi, ammo natijada global investorlar uchun shaffoflik va ishonch ortdi.

Malayziya hisob tizimi ham o'ziga xos bo'lib faoliyat yurituvchi korxonalar Malayziya buxgalteriya hisobi standartlar kengashi (MASB) tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan buxgalteriya hisobi standartlariga muvofiq tayyorlaydilar. Malayziya Fond birjasida ro'yhaga olingan xorijiy kompaniyalar moliyaviy hisobotlarni moliyaviy hisobot xalqaro standartlari kabi xalqaro e'tirof etilgan buxgalteriya hisobi standartlariga muvofiq tayyorlaydilar. Malayziya buxgalteriya hisobi standartlar kengashi tomonidan tasdiqlangan buxgalteriya hisobi standartlarining quyida to'plamni o'z ichiga oladi.

- xususiy korxonalardan (tashkilotlar)dan tashqari boshqa barcha tashkilotlar uchun Malayziya moliyaviy hisobot standartlari

- Malayziya xususiy tashkilotlar uchun moliyaviy xisobot standartlari

2012-yil 1-yanvardan Malayziya buxgalteriya hisobi standartlar kengashi tomonidan tasdiqlangan moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlariga to'la mos keladigan malayziya moliyaviy hisobot standartlari ishlab chiqildi. Mazkur standartlar ichida qayta ko'rib chiqilgan hamda yangidan ko'rib chiqilgan hamda moliyaviy instrumentlar, konsolidatsiya, xaqqoniq qiymatni o'lchash, xodimlarning foydalari, qo'shma kelishuvlar kabi bir qator yangi standartlarni ham o'z ichiga oladi (admin, n.d.).

Yaponiya 2010-yildan boshlab IFRSni o'zining milliy hisobot tizimiga kiritdi va kompaniyalar uchun buni ixtiyoriy ravishda joriy qilish imkoniyatini berdi. Yaponiya xalqaro standartlarga o'tishni bosqichma-bosqich amalga oshirdi. Yaponiya kompaniyalariga 2010-yildan boshlab IFRSni tanlash huquqi berildi. Yaponianing katta kompaniyalari, masalan, Toyota va Sony, IFRSga o'tish orqali global bozorlar bilan aloqalarni mustahkamlashdi. Shuningdek, Yaponiya kompaniyalar, masalan, Toyota, Sony va Honda, IFRSni qabul qilishda muvaffaqiyatli tajriba o'tkazgan va xalqaro investorlarga yanada ochiq va shaffof moliyaviy ma'lumotlarni taqdim etgan.


1-jadval

IFRS standartlarining qo'llanilishi

Mamlakat	IFRS qo'llanishi	Huquqiy maqom
Yevropa Ittifoqi (EU)	Yevropa Ittifoqi a'zosi bo'lgan mamlakatlar uchun IFRS umumiylar qo'llaniladi.	Ishlab chiqilgan standartlar
AQSh (USA)	AQShda, asosan GAAP standartlari qo'llaniladi.	Milliy standartlar (GAAP)
Xitoy	ba'zi mahalliy tuzatishlar bilan.	Stanardlarni integratsiya qilish jarayoni
Yaponiya	Yaponiya kompaniyalar IFRS standartlarini ixtiyoriy qo'llashlari mumkin.	Yaponiya milliy standartlari bilan birga
Indiya	Indiya IFRS ga o'tgan, lekin mahalliy standartlar bilan o'ziga xosliklar saqlanib qolgan.	IFRS-ga moslashgan standartlar
Kanada	Kanalik kompaniyalar uchun IFRS majburiy.	IFRS standartlari
Braziliya	Braziliyada moliyaviy hisobotlarda IFRS standartlarini qo'llash majburiy.	Qonunga asoslangan amalga oshirish
Avstraliya	Avstraliyada barcha ommaviy kompaniyalar IFRS standartlariga amal qiladilar.	Avstraliya IFRS standartlari
Rossiya	Rossiyada IFRS milliy kompaniyalar uchun ixtiyoriy, davlat tashkilotlari uchun majburiy.	Qisman qabul qilish
Qozoqiston	Moliyaviy hisobot xalqaro standartlari barcha listing kompaniyalar, moliyaviy institutlar hamda yirik aksiyadorlik kompaniyalar uchun qo'llaniladi	Qonunga asoslangan amalga oshirish


Dunyo mamlakatlarida moliyaviy hisobot xalqaro standartlarining (IFRS) qo'llanilishi haqidagi ma'lumotlar, ayrim mamlakatlarda IFRS standartlarining qo'llanilishi darajasini va huquqiy hujjatlarni to'g'ridan-to'g'ri yoki paralel tarzda olib borishni ko'rsatib o'tadi. Har bir mamlakatning IFRS standartlarini qo'llash uchun o'zining shartlari, o'zgarishlar va talablari bor. Bu tizimlarning global ta'sirini ko'rish uchun, jadvalda mamlakatlar va ularning IFRS qo'llash darajasi bilan tanishish mumkin. Quyidagi jadvalda ko'rsatilgan mamlakatlar IFRSning qanday darajada amalga oshirilayotganini ko'rsatadi.

Dunyo bo'ylab 93 ta yirik qimmatli qog'ozlar birjalarida ro'yxatdan o'tgan taxminan 49,000 ta ichki ro'yxatga olingan kompaniyalardan 29,000 dan ortig'i IFRS hisoboti standartlarini qo'llaydi. Faqat uchta mamlakat IFRSni qabul qilmagan kompaniyalar soni bo'yicha katta qismini tashkil etadi.



1-rasm. Dunyo mamlakatlari MHXSlarini qo'llanilishi

Bugungi kunda 169 ta malakatda moliyaviy hisobot xalqaro standartlari qo'llanilmoqda (IFRS, 2024). Ayrim mamlakatlar to'liq ayrimlari qisman tan olgan. Moliyaviy hisobot xalqaro standartlarining asosiy vazifasi jahon itisodiyotida o'sish hamda uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashdir. Shuningdek, asosiy maqsad jahon moliya bozorida shaffoflik, javobgarlik va samaradorlikni saqlashdir.



2-rasm. MHXSni qabul qilish uslubiga ko'ra mamlakatlar o'rtasida taqsimlanishi

Izoh: Ushbu diagramma global miyosda qaysi davlatlar IFRSni to'liq, qisman yoki modifikatsiyalar bilan qabul qilganligini ko'rsatadi. To'liq qabul qilgan: 60% Qisman qabul qilgan: 30% Modifikatsiyalar bilan: 10%.

Xalqaro moliyaviy hisobotlar standartlari (IFRS) va milliy moliyaviy hisobotlar tizimlari o'rtaisdagi farqlarni tushunish, bu tizimlarning qanday ishlashini va qanday integratsiya qilish kerakligini aniqlash uchun muhimdir. IFRS dunyo bo'ylab ko'plab mamlakatlarda qo'llaniladi va global moliyaviy shaffoflikni ta'minlashga yordam beradi. Boshqa tomondan, **GAAP (Umumiyl qabul qilingan moliyaviy hisobotlar prinsiplari)** asosan AQSHda qo'llaniladi, ammo boshqa mamlakatlarda ham mavjud. Quyida IFRS va GAAP o'rtaisdagi asosiy farqlarni ko'rib chiqamiz:

2-jadval

Asosiy farqlarni taqqoslash jadvali

Asosiy Yo'nalishlar	IFRS	GAAP
Moliyaviy instrumentlar	Adolatli qiymat (Fair Value)	Ko'proq amortizatsiya qiymati
Ijara shartnomalari	Balansda ko'rsatish (IFRS 16)	Ba'zi hollarda ko'rsatilmasligi mumkin
Zararlarni tan olish	Kutilayotgan kredit zararlari modeli	Tarixiy zararlar modeli
Konsolidatsiya	Boshqaruvga asoslangan konsolidatsiya	Potentsial nazorat asosida
Daromadlarni tan olish	Besh bosqichli model (IFRS 15)	Turli qo'llanmalar
Xarajatlarni qayta baholash	Adolatli qiymat asosida baholash	Qattiq qoidalarga asoslangan

IFRS va GAAP o'rtaisdagi farqlar kompaniyalar uchun moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. IFRS global moliya bozorlariga yanada moslashgan va shaffof tizim bo'lib, kompaniyalarga ko'proq. GAAP ko'proq qat'iy qo'llanmalarga asoslanadi va ba'zi holatlarda aniqroq yo'nalishlarni taqdim etadi. Xalqaro moliya bozorlarida yirik integratsiya jarayonlari davomida bu tizimlar orasidagi farqlarni bartaraf etish va umumiy yondashuvga o'tish zarurati kuchaymoqda.

Xulosa va takliflar.

Xalqaro moliyaviy hisobotlar tizimini integratsiya qilishning asosiy sabablaridan biri tashkilotlar va investorlar uchun taqqoslashni osonlashtirish, shaffoflikni oshirish va global sarmoyalarni jalb qilish. -Integratsiyaning iqtisodiy afzallikkleri: Kapital bozorlari uchun barqarorlik, iqtisodiy o'sish va investorlar uchun imkoniyatlar yaratish.

- huquqiy va institutsional integratsiya: Yuridik me'yorlar va institutsional mexanizmlar orqali IFRS tizimini milliy va mintaqaviy darajalarda amalgaga oshirish.

Xalqaro tizimni joriy etish uchun zarur bo'lgan texnologik infratuzilma, yangilanishlar va tizimni integratsiya qilishdagi texnologik muammolar.Kadrlar tayyorlash va malaka oshirish: Yangi standartlar bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash, o'qitish va metodologik qo'llanmalarining mayjudligi. Moliyaviy Hisobotlar Standartlari Integratsiyasining Moliyaviy Barqarorlikka Ta'siri jahon miqyosida yuz berayotgan o'zgarishlar va jahon bozorning sarmoyadorlarga taqdim etadigan imkoniyatlarini kengaytiradi. IFRS'ning risklarni aniqroq ko'rsatishi, investitsiya qarorlarini shakllantirishdagi rolini tahlil qilishni osonlashtiradi risklarni to'g'ri boshqarishga yordam beradi. ESG (Environmental, Social, Governance): Xalqaro moliyaviy hisobotlar tizimida ESG elementlarining integratsiyasi. ESG omillariga asoslangan hisobotlar va ularning moliya bozorlaridagi rolini oshiradi. Xalqaro moliyaviy hisobotlar tizimining rivojlanishi va integratsiyaning kelajakdagi yo'nalishlari sun'iy intellekt va blockchain texnologiyalarini va yangi texnologiyalarini ularning moliyaviy hisobotlarni yaxshilashdagi rolini oshiradi.

Adabiyotlar /Литература/Reference:

admin (n.d.). Malaysia. [online] www.iasplus.com. Available at:
<https://www.iasplus.com/en/jurisdictions/asia/malaysia>.

Auwalu Musa. (2019) *The Role of IFRS on Financial Reporting Quality and Global Convergence: A Conceptual Review.* //International Business and Accounting Research Journal Volume 3, Issue 1, January, 67-76.

Ball, R. (2006). "International Financial Reporting Standards (IFRS): Pros and cons for investors." *Accounting and Business Research*, 36(sup1), 5-27.

David Alexander Christopher Nobes (2010) FINANCIAL ACCOUNTING An International Introduction Fourth edition published. IAS 1—"Presentation of Financial Statements".
www.iasplus.com.

IFRS (2020) Adoption Worldwide: A Status Report. Deloitte Touche Tohmatsu Limited.
Deloitte.com.

IFRS (2024). Who Uses IFRS Accounting Standards? [online] Ifrs.org. Available at:
<https://www.ifrs.org/use-around-the-world/use-of-ifrs-standards-by-jurisdiction/>.

Mirza, A., Holt, G., & Orrell, M. (2019). IFRS: A Quick Reference Guide. Wiley.

Nobes, C., & Parker, R. (2016). Comparative International Accounting. 13th Edition. Pearson Education Limited.

Tianyu Zhang (2020) *The Accounting System in China From the book The Handbook of China's Financial System Published by Princeton University Press 2020*
<https://www.degruyter.com/document/doi/10.1515/9780691205847-015/pdf> кирилган сана 17.03.2025.